

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Horov Shuxrat Suvonovich</i> ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИИ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i> TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI	14-19
<i>Allaberganova Ro'zigul</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI	20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i> INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSİYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i> QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i> QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISH	58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Abdusamtarova Sumora</i> ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i> UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i> ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO	89-93
<i>Tagaev Kamol</i> YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i> EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i> OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i> MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL	112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i> O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122
---	---------

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO‘LLASH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO‘RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodiq Xudoyor o‘g‘li</i> YUKSAK XIZMAT KO‘RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o‘g‘li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoiraxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O‘QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE LEGAL REGULATION OF LOCAL BUDGETS

Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon ugli

Lecturer at the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article explores the scientific-theoretical and methodological foundations of the legal regulation of local budgets. It particularly analyzes the principles of subsidiarity and fiscal autonomy, based on the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in 2023. The paper examines existing challenges within the local budgeting system and offers practical recommendations through comparative analysis of foreign experiences.

Keywords: local budget, subsidiarity principle, fiscal autonomy, Budget Code, legal regulation, financial independence, public administration.

MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi
E-mail: boburmamadaliyev100@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy budjetlarni huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Xususan, subsidiarlik va fiskal avtonomiya prinsiplari nazariy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri asosida amaliy jihatlari ochib berilgan. Mahalliy budjet tizimidagi mavjud muammolar ko'rib chiqilib, xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida samarali takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, subsidiarlik prinsipi, fiskal avtonomiya, budjet kodeksi, huquqiy tartibga solish, moliyaviy mustaqillik, davlat boshqaruvi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N24>

Kirish.

Mahalliy budjetlar davlat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular nafaqat hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbasi, balki davlat hokimiyatining quyi bo'g'inlarining funksional faoliyatini moliyaviy ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli mahalliy budjetlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning nazariy va metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat moliyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan mahalliy budjetlar, aholi ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri qondirish, ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, mahalliy budjetni samarali huquqiy tartibga

solish va boshqarish nafaqat amaliy, balki nazariy va metodologik asoslarni chuqur o'rganishni talab etadi. Bu borada xalqaro tajribalar va ilmiy qarashlar asosida shakllangan tizimlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budjetlar umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha tadbirlarning samarasi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda budjet sohasida qabul qilingan muhim qonun hujjatlari — Budjet kodeksi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy aktlar mahalliy budjet tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Ammo amaliyotda mavjud muammolar, xususan, mahalliy darajadagi moliyaviy resurslarning yetishmasligi, budjet mustaqilligining cheklangani, fiskal intizomning yetarli emasligi kabi muammolar ushbu tizimni yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Shunday ekan mazkur kichik tadqiqotimizning maqsadi — mahalliy budjetni huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajriba asosida amaliy muammolarni ko'rsatish va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mahalliy budjetlar – bu Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar darajasida faoliyat yurituvchi hokimiyatlar moliyaviy siyosatining asosi hisoblanadi. Budjet kodeksiga ko'ra, ular mahalliy daromad manbalari va davlatdan ajratiladigan transfertlar orqali shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 133-moddasida xalq deputatlari Kengashlari mahalliy budjetni tasdiqlash, uning ijrosini nazorat qilish, mahalliy davlat organlari hisobotlarini eshitish vakolatiga ega ekanligi belgilangan. Bu esa demokratik boshqaruv va moliyaviy javobgarlikni ta'minlash yo'lida muhim huquqiy kafolatdir.

Mahalliy moliyaviy boshqaruvni tahlil qilishda zamonaviy iqtisodiy-nazariy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Bular orasida subsidiarlik va fiskal avtonomiya tamoyillari yetakchi o'rinda turadi.

Subsidiarlik prinsipi – bu qarorlar imkon qadar quyi darajadagi hokimiyatlar tomonidan qabul qilinishi kerak degan tamoyil bo'lib, bu orqali hokimiyat aholi ehtiyojlariga yaqinlashtiriladi. Bu prinsip birinchi marta Yevropa Ittifoqi doirasida 1992-yildagi Maastrixt shartnomasida aniq huquqiy tamoyil sifatida belgilangan.

Fransuz olimi J.J.Rosaning fikriga ko'ra, subsidiarlik prinsipining asosiy vazifasi "hokimiyat vertikalini quyi bo'g'inlar foydasiga soddalashtirish orqali ijtimoiy muammolarni tezroq hal qilish imkonini yaratish"dir[3; B.9].

O'zbekistonda bu prinsip amaliyotda to'liq ishlamayapti. Masalan, maktablarni ta'mirlash, ichimlik suvi tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, mahalliy yo'llarni yangilash kabi masalalar markaziy darajadagi moliyalashtirishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa quyi darajadagi hokimiyatlarning real ehtiyojlar asosida mustaqil qaror qabul qilishini cheklaydi.

Fiskal avtonomiya prinsipi esa mahalliy hokimiyatlarga o'z budjetini shakllantirish, daromadlar ustidan boshqaruv yuritish, xarajatlarni rejalashtirish huquqini beradi. Fiskal

avtonomiya — bu mahalliy hokimiyatlarning o‘z moliyaviy resurslari, daromad manbalari va xarajat yo‘nalishlarini mustaqil boshqarish huquqidir. U budjet mustaqilligi va moliyaviy javobgarlikni ta‘minlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Bu prinsipni A. Musgrave, R. Oates va E. Keyneslar iqtisodiy va moliyaviy nazariyalarda asoslab bergan. Unga ko‘ra, moliyaviy mustaqillik orqali mahalliy hokimiyat samaradorligi oshadi.

R. Oates bu borada shunday deydi: “Fiskal avtonomiya mahalliy hokimiyatni real mas‘uliyat egasiga aylantiradi, bu esa qarorlar sifatini oshiradi” [4; B.7.].

O‘zbekiston amaliyotida bu prinsip cheklangan. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mahalliy budjetlarning o‘rtacha 68% qismi markazdan ajratilgan mablag‘lar orqali to‘ldirilgan. Daromad solig‘i va yer solig‘idan tushgan tushumlarning muayyan qismi ham yuqori budjet darajalariga yo‘naltirilmoqda. Bu esa mahalliy hokimiyatlarning o‘zini o‘zi moliyalashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Xalqaro tajriba bu borada muhim o‘rnaklar beradi. Masalan, Germaniya federativ tizimida har bir yer (land) o‘zining moliyaviy siyosatini yuritadi. Soliqlarning taqsimoti “Finanz-Ausgleich” fondi orqali amalga oshiriladi. Polshada esa mahalliy darajadagi hokimiyatlarga daromad solig‘ining 40 foizigacha bo‘lgan qismi qoldiriladi [5; B.11.]. Bu fiskal mustaqillikni oshiradi, jamoat xizmatlarini to‘liq moliyalashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda esa hali bu modelga yaqinlashish bosqichida turibmiz. 2021–2025-yillar oralig‘ida “Ochiq budjet” tashabbusi doirasida ayrim tuman va shahar budjetlarida aholining takliflari asosida mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Bu ijobiy tajriba bo‘lsa-da, u butun mamlakat miqyosida tizimli tus olgan emas.

Mahalliy moliyaviy siyosatning yana bir muammosi — budjet daromadlarining pastligi. Budjet kodeksi bo‘yicha mahalliy daromadlar manbalariga yer solig‘i, mulk solig‘i, mahalliy yig‘imlar kiradi. Ammo amalda bu manbalar cheklangan va ularning yig‘ilishi ko‘plab xatoliklar bilan kechmoqda. Hisob palatasining 2023-yilgi ma‘lumotiga ko‘ra, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida 5,2 milliard so‘m yer solig‘i tushumining noto‘g‘ri hisoblanganligi aniqlangan.

Muhokama.

Mahalliy budjetlar tizimining zamonaviy huquqiy modelini shakllantirishda xalqaro nazariy yondashuvlar va mahalliy amaliyot o‘rtasidagi tafovutlar chuqur tahlil qilinishi zarur. Ayniqsa, subsidiarlik va fiskal avtonomiya prinsiplari nuqtai nazaridan yondashilganda, mavjud tizimning islohotga muhtojligi yaqqol seziladi.

Masalan, subsidiarlik prinsipi aholi ehtiyojlariga yaqin muammolarni quyi bo‘g‘indagi davlat organlari darajasida hal qilishni nazarda tutadi. Bu prinsip demokratik boshqaruv va moliyaviy mas‘uliyatni joylarda kuchaytiradi. Germaniya, Shvetsiya va Polsha kabi mamlakatlarda subsidiarlik faqat deklarativ emas, balki real vakolat va mablag‘lar orqali ta‘minlangan. Biroq O‘zbekiston amaliyotida bu prinsip asosan nazariy darajada mavjud bo‘lib, hududiy hokimiyatlar mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga yetarlicha ega emas.

Shu bilan birga, fiskal avtonomiya prinsipi orqali mahalliy hokimiyatlar o‘z daromad manbalarini boshqarishi va xarajatlarni rejalashtirishi mumkin bo‘lishi kerak. R. Oates bu borada mahalliy avtonomiya va fiskal intizomning uzviy bog‘liqligini ta‘kidlaydi [4; B.7.]. Aksincha, yuqori darajadagi markazlashuv mahalliy organlarni passiv ijrochiga aylantiradi. O‘zbekiston holatida aynan shunday risklar mavjud bo‘lib, mahalliy budjetlarning katta qismi

markaziy budjetdan transfertlar orqali moliyalashtirilayotgani fiskal mas'uliyat va tashabbusni susaytirmoqda.

Bu yerda A. Musgrave'ning yondashuvi ham dolzarbdir: u davlat tomonidan umumiy iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun muayyan darajadagi markaziy nazorat zarurligini e'tirof etadi [5; B.11.]. O'zbekiston sharoitida aynan mana shu muvozanatga ehtiyoj seziladi: moliyaviy mustaqillik va fiskal nazorat o'rtasida barqaror yondashuv ishlab chiqilishi lozim.

Natijalar.

Xalqaro tajribaning to'g'ri tatbiqi faqat tashqi mexanizmlarni ko'chirib olish bilan emas, balki ularni mahalliy siyosiy va huquqiy kontekstga moslashtirish bilan amalga oshiriladi. Bunda normativ-huquqiy baza, moliyaviy institutlarning salohiyati va jamoatchilik ishtirokining sifati hal qiluvchi omillardir.

Shuningdek, mahalliy budjet tizimini isloh qilishda ijtimoiy adolat tamoyili ham inobatga olinishi kerak. Ya'ni moliyaviy resurslarning faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlarga qarab taqsimlanishi emas, balki aholining ehtiyojlariga qarab yo'naltirilishi subsidiarlik prinsipining ruhiga mos keladi.

Moliya nazoratining sustligi, normativ-huquqiy bazadagi tafovutlar va hududiy vakolatlarning noaniqligi budjet siyosatining samaradorligini pasaytirmoqda. Bu esa mavjud qonunchilikni takomillashtirish, nazorat va audit mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Maqolada qayd etilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy qarashlar va xorijiy amaliyotlar asosida O'zbekistonda mahalliy moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini taklif qilish mumkin:

Konstitutsiyaviy va kodeks darajasida subsidiarlik va fiskal avtonomiya prinsiplari aniq huquqiy norma sifatida mustahkamlanishi;

Mahalliy kengashlarga budjet xarajatlarini shakllantirish va nazorat qilishda real vakolatlar berilishi;

Soliq siyosatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyatini beruvchi huquqiy mexanizm ishlab chiqilishi;

Mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy javobgarligini oshiruvchi nazorat tizimlarini (auditorlik, raqamli monitoring) kuchaytirish.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni huquqiy tartibga solish tizimi oxirgi yillarda yangilanayotgan bo'lsa-da, hali ham ko'plab tizimli muammolarni o'z ichiga olmoqda. Subsidiarlik va fiskal avtonomiya tamoyillarini qonunchilikka to'liq kiritish va amaliyotda ishlatish, mahalliy darajadagi moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali mazkur tizimni yanada samarali, ochiq va hisobdor qilish mumkin.

O'z vaqtida amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar mahalliy budjetlarning real funksional kuchga aylanishini ta'minlaydi. Bu esa ijtimoiy adolat, hududiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish uchun muhim zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi ;
3. Rosa, J.-J. (1994). *La subsidiarité: un principe à revisiter*. Revue Française de Finances Publiques, № 45.;

4. Oates, W.E. (1972). *Fiscal Federalism*. Harcourt Brace Jovanovich, New York.;
5. Musgrave, R.A. (1959). *The Theory of Public Finance*. McGraw-Hill, New York.;
6. Hisob palatasi axboroti, 2023.;
7. OECD Fiscal Decentralisation Report, 2022.;
8. Polsha moliyaviy mustaqillik modeli: Local Government Revenue System, Warsaw, 2020.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).